OLX.uz servisi qoidalari

USHBU QOIDALAR 15.02.2024 YILGA QADAR AMAL QILGAN

Mundarija:

1. Ta’riflar
2. Umumiy qoidalar
3. Hisob qaydnomalari
4. E’lonlarni joylashtirish qoidalari
5. Bepul e’lonlar
6. Pullik e’lonlar
7. E’lonlarni rivojlantirish xizmatlari
8. To‘lov
9. OLX hisob raqami xizmati
10. Foydalanuvchilarning noqonuniy va Qoidalarga zid harakatlari
11. Reytinglar va sharhlar
12. Shikoyat qilish tartibi
13. Nizolarni sudgacha hal qilish
14. Yakunlovchi qoidalar

Ilovalar:

- 1-ilova - OLX ko‘chmas mulk
- 2-ilova - Rivojlantirish xizmatlari
- 3-ilova - E’lonlar limitlari
- 4-ilova - Shartnomani bekor qilish to'g'risida ariza namunasi
- 5-ilova - Taqiqlangan va shartli ravishda ruxsat etilgan pozitsiyalar
- 6-ilova - Start va Premium to'plamlari

1. Ta’riflar

1. **Kun** - uzluksiz 24 soat.
2. **Mehmon** - hisob qaydnomasi bo‘lmagan yoki avtorizatsiyadan o‘tmagan jismoniy shaxs, Veb-saytning foydalanuvchisi.
3. **OLX Group -**“OLX CLASSIFIEDS” Mas’uliyati cheklangan jamiyati, STIR: 205707447.
4. **Nomzod** - “Ish” kategoriyasidagi e’lonni ko‘rayotgan mehmon yoki foydalanuvchi.
5. **Kategoriya** - e'lon tegishli bo‘lgan tematik kategoriya (masalan, “Transport” yoki “Elektronika”). Kategoriyani tematik jihatdan bog‘liq bo‘lgan kichik kategoriyalarga bo‘lish mumkin.
6. **Mijoz** - Veb-saytda uning ishi yoki kasbiy faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan harakatlarni amalga oshiradigan jismoniy shaxs bo‘lgan foydalanuvchi.
7. **Hisob qaydnomasi** - ma’lum bir foydalanuvchiga tegishli ma’lumotlar to‘plami, shu jumladan uning Veb-saytidagi harakatlari va Veb-saytda Foydalanuvchi tomonidan

taqdim etilgan ma’lumotlar. Hisob qaydnomasiga oid qoidalar Qoidalarning 3-bandda ko‘rsatilgan.

8. **Xaridor** - Veb-sayt funksiyalaridan foydalangan holda Sotuvchi bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan Foydalanuvchi.
9. **Limit** - tanlangan Kategoriyalar bo‘yicha ma’lum bir vaqt ichida Foydalanuvchi Veb-saytda e’lon qilishi mumkin bo‘lgan bepul e’lonlar soni. Har bir Kategoriadagi limitlardan mustaqil foydalanish ko‘zda tutilgan.
10. **E’lon** - Sotuvchi tomonidan sotish yoki Pozitsiyani taqdim etish to‘g‘risidagi taklif, shuningdek Qoidalarning 4-bandida ko‘rsatilgan shartlar asosida Veb-saytda e’lon qilingan, Ish beruvchining ishga joylashish jarayonida ishtirok etish uchun taklifnomasi.
11. **OLXhisob raqami** - bu Qoidalarning 9-bandida tasvirlangan, to‘lovlarni osonlashtiruvchi Hisob qaydnomasining bepul funksiyasi.
12. **Ish beruvchi** - Veb-saytning “Ish” kategoriyasida E’lon joylashtirayotgan Foydalanuvchi.
13. **Pozitsiya** - E’lon tarkibiga kiritilgan tovarlar yoki xizmatlar; “Ish” kategoriyasida E’lonlar pozitsiyasi, Ish beruvchining E’lonida tasvirlangan vakansiya tavsifi va talablarini anglatadi.
14. **Qoidalar** - ushbu Qoidalar, shu jumladan Veb-saytdan foydalanish tamoyillarini belgilaydigan qo‘shimchalar. Veb-saytda istalgan vaqtda Qoidalarning so‘nggi versiyasini topish, yuklab olish, qurilmaning qattiq diskida saqlash yoki chop etish mumkin.
15. **Ro‘yxatdan o‘tish** - bu Foydalanuvchi tomonidan unga tegishli ma’lumotlarni taqdim etganidan, Qoidalarni qabul qilganidan va Hisob qaydnomasini faollashtirgandan so‘ng Hisob qaydnomasi yaratish jarayoni.
16. **Veb-sayt (Servis)** - olx.uz domenida va OLX.uz mobil ilovasida mavjud bo‘lgan OLX Group onlayn platformasi.
17. **Sotuvchi** - E’lonni Veb-saytda joylashtiruvchi va Xaridor bilan bitimlarni amalga oshiruvchi foydalanuvchi.
18. **Bitim** - Foydalanuvchilar yoki Foydalanuvchi va Mehmon o‘rtasida Pozitsiyaga nisbatan tuzilgan har qanday kelishuv.
19. **Pullik xizmatlar** - OLX Group tomonidan Foydalanuvchiga ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar, shu jumladan, pullik E’lonlar yoki E’lonlar to‘plami va rivojlantirish xizmatlari.
20. **Rivojlantirish xizmatlari** - 2-ilova “Rivojlantirish xizmatlari”da keltirilgan, e’lonlarni rivojlantirish uchun pullik xizmatlar.
21. **Foydalanuvchi** - Hisob qaydnomasiga kirgandan so‘ng, Veb-saytdan foydalanish huquqiy qobiliyatga ega bo‘lgan jismoniy, yuridik shaxs yoki alohida bo‘linma.
22. **Biznes-foydalanuvchisi** - Veb-saytni tadbirkorlik yoki kasbiy faoliyat uchun ishlatadigan va ushbu Qoidalarda ko‘rsatilgan xususiyatlardan kamida biriga javob beradigan xizmatlar foydalanuvchisi. Foydalanuvchi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida ro‘yxatdan o‘tganligidan yoki bunday faoliyatni tegishli ro‘yxatdan o‘tkazmasdan amalga oshirganligidan qat’iy nazar, OLX Group Biznes-foydalanuvchisi hisoblanishi mumkin.

2. Umumiy qoidalar

1. Veb-saytdan foydalanish shartlari, shu jumladan E’lonlarni Ro‘yxatdan o‘tkazish, nashr etish va pullik xizmatlarni sotib olish qoidalari, shuningdek to‘lash va shikoyat berish tartibi bilan

bog‘liq masalalar Qoidalarda belgilab qo‘yilgan. Veb-saytning har bir foydalanuvchisi Qoidalarning mazmuni bilan tanishishi shart.

2. Mehmonlar qonun va adolat tamoyillariga muvofiq ushbu Qoidalarda belgilangan shartlar asosida Veb-saytning faqat cheklangan funksiyalaridan foydalanishlari mumkin.

3. Veb-saytga chop etilgan kontent, shu jumladan E’lonlar, ularning shaklidan qat’i nazar, ya’ni. matnli, grafikali va video materiallar OLX Group, Sotuvchilar yoki uchinchi shaxslarning intellektual mulk huquqlari, shu jumladan mualliflik huquqi va sanoat mulki huquqlari obyektlari sanaladi. Ushbu kontent vakolatli shaxsning yozma roziligisiz hech qanday tarzda ishlatilishi mumkin emas. Veb-saytda mavjud bo‘lgan axborotlarni va boshqa ma’lumotlarni boshqa veb-saytlarda va Internetdan tashqarida uchinchi shaxslarga uzatish uchun to‘plash, qayta ishlash taqiqlanadi. Shuningdek, OLX Group ning roziligisiz Veb-sayt va OLX Group belgilaridan, shu jumladan xarakterli grafik elementlardan foydalanish taqiqlanadi.

4. 4.3-bandga muvofiq OLX Group ga berilgan litsenziyaga muvofiq, ushbu Qoidalar OLX Groupning huquqlaridan yoki 2.3-bandda ko‘rsatilgan uchinchi shaxslarning huquqlaridan foydalanish uchun rozilikni bildirmaydi, lekin ushbu huquqlardan voz kechish sifatida talqin qilinmasligi ham kerak.

5. **OLX Group Bitimning bir tomoni sanalmaydi.**

6. Veb-sayt doirasida quyidagi amallarni bajarish mumkin:

- a. Veb-sayt kontentini ko‘rish;
- b. Hisob qaydnomasidan va u bilan bog‘liq funksiyalardan, shu jumladan OLX hisob raqamidan foydalanish;
- c. 3-ilova “E’lonlar limitlari”da ko‘rsatilgan bepul limitlar chegaralarida E’lonlarni joylashtirish;
- d. limitlardan tashqaridagi E’lonlarni pullik nashr etish;
- e. Pullik servisdan foydalanish (shu jumladan rivojlantirish xizmatlaridan).

7. Bepul xizmatlarga veb-sayt kontentini ko'zdan kechirish, hisob qaydnomasini ko'zdan kechirish, bepul limitlar doirasida E'lonlarni joylashtirish kiradi. Qolgan xizmatlar pullik.

8. Foydalanuvchilar tashqi yetkazib beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan yetkazib berish va to‘lov xizmatlaridan, OLX Group sherik bo‘lmagan, alohida huquqiy munosabatlar asosida foydalanadilar.

9. Qoidalarning nizomlari, agar 1-ilova “OLX ko‘chmas mulk”da boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, “Ko‘chmas mulk” toifasidagi e’lonlarga nisbatan qo‘llaniladi.

10. Veb-saytdan to‘liq foydalanish uchun Internetga ulangan qurilma quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- a. HTTPS protokoli orqali ikki tomonlama aloqani ta’minlaydigan uzluksiz Internet ulanish;
- b. HTML5 standarti va kaskadli uslublar jadvallarini (CSS3) ishlata oladigan to‘g‘ri o‘rnatilgan va sozlangan so‘nggi versiyadagi veb-brauzer, masalan, Google Chrome, Mozilla Firefox, Opera, Microsoft Edge, Internet Explorer.
- c. JavaScript va cookies fayllarni qo‘llash yoqib qo‘yilgan (odatda brauzerlarda avtomatik ravishda yoqilgan bo‘ladi);
- d. Android versiyasining 5,0 dan kam bo‘lmagan asl nusxasi yoki 10.0 dan kam bo‘lmagan asl iOS versiyasi, OLX ilovasi rasmiy do‘kondan yuklab olingan bo‘lishi kerak (masalan, App Store yoki Google Play). Veb-sayt televizor ekranida, Blackberry va Windows Phone ekranlarida to‘g‘ri aks etmasligi mumkin.

11. OLX Group Veb-saytning uzluksiz ishlashini ta’minlash uchun barcha imkoniyatlarni ishga soladi. Xizmatlarning yuqori sifatini va veb-saytning samarali ishlashini ta’minlash maqsadida OLX Group Veb-sayt faoliyatini quyida tavsiflangan shartlarda to‘xtatib qo‘yish huquqini o‘zida saqlab qoladi:

a. Texnik tanaffuslar - tun vaqtida (22-6) sodir bo‘lishi mumkin, bu vaqtda Veb-saytning ba’zi funksiyalari va OLX Group tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar cheklanishi yoki mavjud bo‘lmasligi mumkin.

b. Texnik nosozlik - OLX Group javobgar bo‘lgan holatlar tufayli texnik xato yuzaga kelishi, natijada:

- ko‘pchilik yoki barcha Foydalanuvchilar Xizmatdan foydalana olmaydilar;
- Saytning asosiy funksiyalariga kirish imkoni yo‘q yoki ular noto‘g‘ri ishlaydi, xususan, bu E’lonlarni nashr etish, namoyish qilish, yangilash yoki ko‘tarish mumkin emasligiga tegishli.

12. Veb-saytda nashr qilingan E’lonlar tegishli kategorilarda xronologik tartibda, ya’ni quyidagi prinsipga muvofiq namoyish etiladi: Foydalanuvchi E’lonni qanchalik kech nashr etsa, Reklama xizmatlarini hisobga olgan holda ro‘yxatda shunchalik baland turadi. Veb-saytning asosiy sahifasida faqat reklama xizmatlari doirasidagi faol E’lonlar ko‘rinadi - Veb-saytning asosiy sahifasida pullik E’lonlarning sarlavhalari navbat bilan namoyish etiladi.

13. Veb-saytdagi chat orqali boshqa foydalanuvchilar bilan muloqotda bo‘lgan foydalanuvchilar, ushbu suhbatlar maxfiy emasligini va ularning mazmuni OLX Group tomonidan to‘planishi mumkinligini tasdiqlaydilar. Ushbu Qoidalarni qabul qilib, Foydalanuvchi OLX Group foydalanuvchilarning xavfsizligini oshirish, Veb-saytning suiiste’mol qilinishini oldini olish va sifatini yaxshilash maqsadida Veb-saytidagi chat funksiyasi orqali o‘tkazilgan suhbatlar mazmuniga kirish va tahlil qilish huquqiga ega ekanligini tasdiqlaydi. OLX Group Veb-saytning chat funksiyasi orqali o‘tkazilgan suhbatlar tarkibiga qanday va nima uchun kirishi va uni tahlil qilishi uchun ruhsat berilishi haqida ko‘proq ma’lumotlarni Maxfiylik siyosatida topish mumkin.

3. Hisob qaydnomalari

1. Xizmatlarning funksional imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish uchun Mehmon hisob qaydnomasini ro‘yxatdan o‘tkazishi va ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchi sifatida Veb-saytdan foydalanishni boshlashi kerak. Hisob qaydnomasi, xususan, Veb-saytning quyidagi funksiyalarini taqdim etadi:

- a. nashr etilgan E’lonlarni nashr etish va boshqarish;
- b. boshqa Foydalanuvchilarning E’lonlarini ko‘rish;
- c. OLX Group Veb-saytida ko‘rsatilgan xizmatlarga tegishli to‘lovlar va hisob-raqamlarni boshqarish;
- d. boshqa Foydalanuvchilarga xabarlarni yuborish va ulardan xabarlarni qabul qilish;
- e. Reklama xizmatlariga buyurtma berish.

2. Faqat tegishli miqdordagi muomala layoqatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs, yuridik shaxs yoki alohida bo‘linma Foydalanuvchi bo‘lishi mumkin. Yuridik shaxslar va alohida bo‘linmalarga nisbatan, faqatgina ularning nomidan ish yuritishga vakolatli shaxs hisob qaydnomasini yaratishi va Veb-saytda har qanday harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

3. Foydalanuvchi faqat bitta Hisob qaydnomasiga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu qoida quyidagi hollarda amal qilmaydi:

- a. Foydalanuvchida shaxsiy maqsadlarda foydalaniladigan Hisob qaydnomasi va uning biznes faoliyati bilan bog‘liq alohida Hisob qaydnomasi mavjud bo‘lsa;
- b. Foydalanuvchi tomonidan yuritiluvchi foydalanuvchi tomonidan olib boriladigan biznesning turli vakillari yoki filiallari Hisob qaydnomalariga hizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq o‘zining tijorat faoliyati davomida boshqa boshqa Hisob qaydnomalari dan foydalaniladi, Hisob qaydnomalar ning birida faol E’lonlar to‘plami mavjud bo‘lishi Hisob qaydnomalarida joylashtirilgan E’lonlar bir xil joylarda takrorlanmasligi sharti bilan;
- c. Hisob qaydnomaga kirish imkoni yo‘qligi sababli (unutilgan parol) boshqa Hisob qaydnoma yaratish kerak hollarda.

Ammo, bu boradagi barcha istisnolar yuqoridagi istisno qo‘llanilishini asoslaydigan holatlar tasdiqlanmagan taqdirda, Hisob qaydnomasini ko‘rib chiqish muddati davomida to‘xtatib turish yoki Hisob qaydnomasini o‘chirib tashlash huquqiga ega OLX Group tomonidan batafsil tekshirilishi kerak.

Yuqoridagi istisnolar, agar ular Foydalanuvchi tomonidan faqat Servis doirasida ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovni to‘lashdan qochish maqsadida foydalanilsa, qo‘llanilmaydi.

4. Hisob qaydnomasini ro‘yhatga olish uchun quyidagilar talab etiladi:

- a. Veb-saytda mavjud bo‘lgan shaklni to‘ldirish va kerakli ma’lumotlarni, shu jumladan elektron pochta manzilini yoki telefon raqamini va noyob parolni yoki Facebook, Google yoki Apple kabi tashqi xizmat ko‘rsatuvchi orqali autentifikatsiyanii taqdim etish;
- b. Qoidalar va ularning ilovalari bilan tanishib, shartlarni qabul qilish.

5. OLX Group Maxfiylik siyosati va cookies va shunga o‘xshash texnologiyalarga nisbatan siyosat shartlariga muvofiq Foydalanuvchilar, Foydalanuvchilar va Mehmonlar nomidan ish yurituvchi shaxslarning shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlaydi.

6. Ro‘yxatdan o‘tish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar to‘ldirilgandan so‘ng, foydalanuvchi tomonidan ko‘rsatilgan elektron pochta manziliga Hisob qaydnomasi ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risidagi tasdiq, Hisob qaydnomasini faollashtirish uchun havola va amaldagi Qoidalar yuboriladi. Agar foydalanuvchini ro‘yxatdan o‘tkazishda mobil telefon raqamidan foydalanilsa, ko‘rsatilgan raqamga Hisob qaydnomasini faollashtirish uchun parol SMS bilan yuboriladi. Ro‘yxatdan o‘tkazish, Foydalanuvchi Hisob qaydnomasini faollashtirganda yakunlanadi. Ushbu bosqichda Hisob qaydnomasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma tuziladi. Hisob qaydnomasini ro‘yxatga olinganlini tasdiqlovchi elektron pochta xabarini olgan kundan boshlab 30 kundan keyin faollashtirish uchun havolaning amal qilish muddati tugaydi, agar ushbu muddat davomida ulanish amalga oshirilmasaHisob qaydnomasini faollashtirish amalga oshirilmaydi. Foydalanuvchi faqat qayta aloqa shakli orqali avvalgi elektron pochta manzilidan foydalanib OLX Group ga murojaat qilib, qayta ro‘yxatdan o‘tishi mumkin.

7. Foydalanuvchi Ro‘yxatdan o‘tish va Veb-saytdan foydalanish paytida berilgan ma’lumotlarning aniq, to‘g‘ri va dolzarb ekanligiga va ushbu ma’lumotlardan foydalanish huquqiga ega ekanligiga kafolat beradi. Foydalanuvchi ma’lumotlar o‘zgarsa, ularni yangilash majburiyatini oladi. Agar taqdim etilgan ma’lumotlar yuqoridagi talablarga javob bermasa, OLX Group Qoidalarning 10-qismida belgilangan tartibda Hisob qaydnomasini blokirovka qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

8. Foydalanuvchi nomidan Veb-saytdan foydalanuvchi, yuridik shaxs yoki alohida bo‘linma bo‘lgan shaxs, ushbu Foydalanuvchi nomidan veb-saytda harakatlanishga va barcha amallarni amalga oshirishga vakolatli ekanligini tasdiqlaydi.

9. Foydalanuvchi Hisob qaydnomasiga kirish ma’lumotlarini maxfiy saqlash va ularni ruxsatsiz vakolatga ega bo‘lmagan uchinchi shaxslar kirishidan himoya qilish majburiyatini oladi. Agar Foydalanuvchi vakolatga ega bo‘lmagan uchinchi tomonlar Hisob qaydnomasiga kirish huquqini olganligini bilsa OLX Groupga darhol xabar beradi va iloji bo‘lsa, kirish ma’lumotlarini darhol o‘zgartiradi.

10. Hisob qaydnomasiga hizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma uni faollashtirgandan so‘ng noma’lum muddatga tuziladi. Hisob qaydnomasiga hizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomasi quyidagi qoidalarga amal qilgan holda Foydalanuvchi tomonidan bekor qilinishi mumkin:

- a. Hisob qaydnomasini o‘chirish huquqi, Foydalanuvchining qonun va ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan shartnomadan chiqish yoki uni bekor qilish huquqiga ta’sir qilmasa;
- b. Hisob qaydnomasini o‘chirish: (i) Hisob qaydnomasi panelidagi tegishli opsiyani tanlash, (ii) o‘chirish so‘rovini aloqa shakli orqali yuborish yoki (iii) OLX Group manziliga yozma ravishda o‘chirish to‘g‘risida xabarnoma yuborish yo‘llari bilan amalga oshiriladi;

- c. Foydalanuvchi tomonidan Hisob qaydnomasi o‘chirilgandan so‘ng, OLX Group va Foydalanuvchi o‘rtasidagi Saytda taqdim etiladigan xizmatlarga nisbatan qolgan shartnomalar bekor qilinadi;
- d. Hisob qaydnomasi bo‘yicha bitimni bekor qilish darhol kuchga kiradi (kelajakda), bu Foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilgan to‘lovlar qaytarib berilmasligini anglatadi. OLX Group shuningdek, foydalanilmagan mablag‘larning ekvivalentini Pullik xizmatlar doirasida qaytarishga majbur emas;
- e. Hisob qaydnomasi o‘chirilgandan yoki Hisob qaydnomasi bo‘yicha shartnoma bekor qilingandan so‘ng, Foydalanuvchi veb-saytdan foydalanish paytida taqdim etilgan yoki yaratilgan ma’lumotlarga kirish huquqini yo‘qotadi.

11. OLX Group Foydalanuvchi bilan shartnomani bekor qilishga haqlidir, agar foydalanuvchi:

- a. 24 oy davomida Hisob qaydnomasiga kirmagan bo‘lsa. Bunday holda, Foydalanuvchi o‘chirilgan Hisob qaydnomasidan foydalana olmaydi. Shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi ma’lumot Foydalanuvchiga 30 kun oldin Ro‘yxatdan o‘tish paytida ko‘rsatilgan elektron pochta manzili yoki telefon raqamiga yuboriladi. Agar foydalanuvchi ushbu maqsad uchun taqdim etilgan funksiyalardan foydalangan holda Hisob qaydnomasidan foydalanishni davom ettirishni xohlasa, buning uchun u Hisob qaydnomasiga kirishi zarur. OLX Groupning ushbu qoidaga muvofiq shartnomani bekor qilish huquqi Foydalanuvchining Veb-saytda qayta ro‘yxatdan o‘tish huquqini cheklamaydi Biroq, OLX Group yangi ro‘yxatdan o‘tishda hisob qaydnomasi bilan bog‘liq bo‘lgan foydalanuvchining joriy nomlanishi, foydalanish uchun mavjud bo‘lishiga kafolat bermaydi;
- b. OLX Group tomonidan Qoidalar yoki umuman amaldagi qonunchilikka zid bo‘lgan ba’zi harakatlar yoki harakatsizliklarni bekor qilish to‘g‘risidagi talabiga qaramay, Qoidalar talabda ko‘rsatilganidek o‘z kuchida qoladi.

12. Servisning to‘g‘ri ishlashini ta’minlash va foydalanuvchilar xavfsizligini himoya qilish uchun, OLX Group Foydalanuvchi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va haqqo‘yligini, Foydalanuvchi shaxsini tasdiqlov so‘rovi yuborish, E’lonlar ichidagi yoki amalga oshirilayotgan Bitimga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni OLX Group tanlagan uslubda qo‘shimcha tekshirish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Foydalanuvchining ma’lumotlarini yoki shaxsini tasdiqlash uchun muvaffaqiyatsiz urinish bo‘lgan taqdirda, Hisob qaydnomasi OLX Group tomonidan Qoidalarning 10-bandida ko‘rsatilgan shartlar asosida to‘xtatib qo‘yilishi yoki bloklanishi mumkin.

13. Mijozning shartnomadan voz kechishi. OLX Group bilan shartnoma tuzilgan kundan boshlab 10 kun ichida Mijoz, sabablarni ko‘rsatmasdan, o‘zaro aloqa shakli orqali yoki OLX Group pochta manziliga tegishli arizani yuborish orqali undan voz kechishi mumkin. Hisob qaydnomasiga hizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma bekor qilingandan so‘ng, OLX Group ni foydalanuvchi bilan bog‘laydigan boshqa shartnomalarning amal qilish muddati tugaydi. Foydalanuvchi foydalanishi mumkin bo‘lgan rad etish arizasining namunasi, 4-sonli Ilovadagi “Namunaviy rad etish arizasi” yo‘riqnomasida keltirilgan.

14. Qoidalardagi o’zgarishlarni qabul qilishni rad etgan taqdirda Hisob qaydnomasiga xizmat ko’rsatish shartnomasi Biznes-foydalanuvchi tomonidan qoidalarning 3.10 bandiga muvofiq bekor qilinishi mumkin, bu haqda Foydalanuvchi 14.1. b. bandiga muvofiq xabardor qilinadi. Bunday holatda, Hisob qaydnomasiga xizmat ko’rsatish shartnomasini bekor qilish uchun Biznes-foydalanuvchi o’z niyati haqida OLX Groupni o'zgarishlar kiritilishi haqida e'lon qilingan kundan boshlab 15 kundan kechiktirmay xabardor qilishi kerak. Yuqorida qayd etilgan Hisob qaydnomasiga xizmat ko’rsatish shartnomasi Foydalanuvchisi uchun shartnomani bekor qilish Foydalanuvchini Qoidalardagi o'zgarishlar to'g'risida xabardor qilgandan keyin 15 kun o'tgach kuchga kiradi, agarda Biznes-foydalanuvchi o'z niyati haqida xabar berishdan bosh tortmasa, tegishli bayonot bermasa yoki bunday shartlarni qabul qilishni tasdiqlovchi veb-saytda aniq harakatlar qilmasa (masalan, yangi e’lon joylashtirmasa).

15. Mening rezyume va Nomzod profili (BETA-versiya).

1. OLX.UZ Hisob qaydnomasidagi “Nomzod profili” (shuningdek, "Sozlamalar - Mening rezyume" yorlig'i orqali ham mavjud) bo'limida har bir Foydalanuvchi o‘zining rezyumesini, xususan, ta'lim, martaba o'sishi va boshqa shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatni (Rezyume) qo’shib qo’yishi mumkin. Hisob qaydnomasining ba’zi funksiyalaridan foydalanish uchun sizning Hisob qaydnomangizdagi “Mening rezyume” bo’limida Rezyume qo‘shish talab qilinishi mumkin. Hisob qaydnomasi istalgan vaqtda sizning Rezyumeingizni o‘zgartirish, qo‘shish yoki o‘chirib tashlash imkonini beradi.
2. Hisob qaydnomasida Rezyumeni faqatgina .doc, .odt, .pdf yoki .docx formati qo‘shish mumkin. Bunday faylning hajmi 4 MBdan oshmasligi kerak.
3. Bir vaqtning o‘zida Foydalanuvchining Hisob qaydnomasida faqat bitta Rezyume qo'shilgan bo'lishi mumkin. Bo‘sh ish o‘rniga murojaat qilishda Rezyumeni o‘zgartirish yoki qo‘shish uni Foydalanuvchi hisob qaydnomasiga qo‘shadi yoki o‘zgartiradi. Rezyumeni “Nomzod profili” bo‘limida (shuningdek, "Sozlamalar - Mening rezyume" yorlig'i orqali ham mavjud) va Servisda mavjud bo‘lgan forma orqali bo‘sh ish o‘rniga murojaat qilish jarayonida maxsus tugma yordamida o‘zgartirish mumkin. Ma’lumotlarni taqdim etish jarayonida Servisda mavjud bo‘lgan funksiyalarga qarab, Foydalanuvchining Rezyumesi avtomatik ravishda yuborilayotgan murojaatga qo‘shilishi mumkin. Foydalanuvchi Rezyumeni ish beruvchiga taqdim etish ustidan nazoratni saqlab qoladi, ya’ni avvalgi jumlada ko‘rsatilgan shartlarga muvofiq murojaatga avtomatik ravishda qo‘shilsa ham, Foydalanuvchi formada taqdim etilgan funksional imkoniyatlardan foydalanib har safar ma’lum bir murojaatga rezyumeni qo‘shishni rad etishi mumkin. Murojaat qilishda Foydalanuvchi formadagi maxsus tugmalar yordamida Rezyumeni o‘chirish yoki o‘zgartirish imkoniyatiga ham ega.
4. Rezyume Foydalanuvchi tomonidan taqdim etilib, u rezyumening mazmuni, xususan undagi ma’lumotlarning to‘g‘riligi va qonuniyligi uchun javobgar bo‘ladi.
5. Veb-saytda mavjud bo‘lgan usullar yordamida Ish beruvchi bilan aloqa qilishdan tashqari, Rezyume Veb-saytdan foydalanuvchi boshqa shaxslarga taqdim etilmaydi.
6. OLX.UZ Hisob qaydnomasida“Nomzod profili” bo'limida har bir Foydalanuvchi, nomzod Shaklini to‘ldirishi, ya’ni ismi va familiyasi, bog‘lanish uchun aloqa ma’lumotlari, ta'limi, kasbiy tajribasi, ko‘nikmalari va qiziqishlari kabi o‘zining shaxsiy ma’lumotlarini taqdim

etishi mumkin. Nomzodning shaklini doimiy ravishda tahrir qilib turish mumkin (undagi ma’lumotlarni o‘chirib tashlash, qo‘shish va almashtirish mumkin).

7. Nomzod shakli kamida 60% to‘ldirilganidan so‘ng:
   a) biz 3.15.8 (a) bandga binoan Nomzod profili xizmatlarini avtomatik ravishda ishga tushiramiz;
   b) Foydalanuvchi 3.15.8 (b) bandga binoan tegishli opsiyani tanlab, “Nomzod profili” xizmatini ishga tushirishi mumkin bo‘ladi.
8. Nomzod profili xizmati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
   (a) Foydalanuvchiga, Nomzod profilida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida, ya’ni OLX Group vositasi tomonidan amalga oshirilgan avtomatik baholashga binoan Foydalanuvchining profiliga eng mos kelgan ma’lumotlar asosida personallashtirilgan, Veb-saytning “Ish” Kategoriyasida hozirgi vaqtda mavjud bo‘lgan E’lonlar namunalarini taqdim etish. Ushbu bo‘limda qayd etib o‘tilgan personallashtirilgan E’lonlar Veb-saytning “Tavsiya etilgan bo'sh ish o'rinlari” bo'limida, shuningdek, Foydalanuvchining tanloviga ko‘ra, Veb-saytning boshqa sahifalaridagi ajratilgan joylarda va bevosita muloqot kanallari orqali aks ettirilishi mumkin;
   (b) Ish beruvchilarga (faqat Nomzodning aniq roziligi mavjud bo‘lganda), ularning ma’lumotlarini, Nomzod profilidan Ish beruvchilar foydalana oladigan qilib opsiya tanlagan vaqtdan boshlab, to ushbu opsiyadan voz kechgunga qadar – Veb-saytda mavjud usul bilan vakansiyaga qilingan har bir javob uchun nomzodning to‘ldirilgan Profiliga avtomatik ravishda havola qo‘shiladigan tarzda, taqdim etish imkoniyati. Bunday havola orqali mavjud bo‘lgan Nomzod profili 3.15.6-bandga muvofiq nomzod saqlaydigan ma’lumotlarni aks ettirish uchun davriy ravishda yangilanib turiladi.
9. Nomzod Profili xizmati, 60% chegaraviy qiymat ostidagi ma’lumotlar Nomzod profilidan o‘chirib tashlangunga qadar yoki Hisob qaydnomasi o‘chirib tashlangungacha taqdim e'tiladi.
10. 3.15.8 (b) bandda qayd etilgan Nomzod profili mazmuniga havola faqatgina yuborilgan Hisob qaydnomasi uchun faol bo'ladi hamda ushbu funksiya nomzod Hisob qaydnomasida yoqilgan davr mobaynida faol bo‘ladi.
11. Yuqorida tavsiflangan Nomzod profili xizmati hali ishlab chiqish (BETA-versiya) bosqichidadir, bu esa, ushbu xizmat yoki uning ba’zi funksiyalari yoki yechimlaridan Foydalanuvchilar foydalana olmasliklari yoki ular noto‘g‘ri ishlashi mumkinligini anglatadi.

4. E’lonlarni joylashtirish qoidalari

1. OLX Group Foydalanuvchiga Veb-saytda E’lonlarini joylashtirishga imkon beradi. Tegishli shakl to‘ldirilgandan va SMS-verifikatsiya o‘tkazilgandan so‘ng, Foydalanuvchi E’lonni Veb-saytda nashr qilishi mumkin. SMS-verifikatsiya bir marta amalga oshiriladi va Foydalanuvchi tomonidan ko‘rsatilgan telefon raqamiga, keyinchalik Foydalanuvchi shaklga kiritadigan, tasdiqlash kodini yuborishdan iborat bo‘ladi. Ichki xavfsizlik protseduralari tufayli SMS-verifikatsiyani takrorlanishi mumkin.

2. Veb-saytda Foydalanuvchi tomonidan nashr qilingan E’lon barcha Foydalanuvchilar uchun ochiqdir. E’lon bilan birga, boshqa Foydalanuvchilarga E’lonni nashr qilgan Foydalanuvchi bilan bog‘lanish va unga xabar yuborish imkoniyatini beruvchi aloqa shakli ham mavjud bo‘ladi.

3. E’lon nashr qilinayotgan paytda Foydalanuvchi E’lonni yozish, ko‘paytirish va to‘liq yoki qisman tarqatish uchun eksklyuziv bo‘lmagan, geografik jihatdan cheklanmagan va bepul litsenziyani OLX Group - Veb-saytida va ular orqali Veb-sayt targ‘ib qilinadigan OLX Group sheriklari, shuningdek Internet orqali istalgan joyda, jumladan qidiruv tizimlari (masalan, Google) va ijtimoiy tarmoqlar (masalan, Facebook)da aks ettirish uchun taqdim etadi. Litsenziyaning taqdim etilishi, Xizmatdan to‘liq foydalanish uchun zarur. Internetning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, OLX Group Veb-sayt funksiyalari yordamida nashr etilgan yoki uzatilgan mazmunni boshqa foydalanuvchilarga tarqatilishini to‘liq nazorat qila olmaydi va bu uchun uchinchi shaxslar oldida, xususan Xizmatga aloqasi bo‘lmagan veb-saytlar va portallarda uchinchi shaxslar tomonidan E’lonlarda nusxa ko‘chirishda va tarqatilishida javobgar bo‘lmaydi.

4. Har bir E’lonning mazmuni Qoidalarning 10.1-bandida ko‘rsatilgan talablarga javob berishi, rost, aniq va tushunarli bo‘lishi, shuningdek OLX Group tomonidan sanab o‘tilgan texnik talablarga javob berishi kerak. Foydalanuvchi E’lon mazmunini qonun doirasida va quyidagi talablarga muvofiq belgilashi mumkin:

- a. E’lon davlat yoki rus tillarida tuziladi, unda odatda qo‘pol yoki haqoratli deb hisoblanadigan so‘zlar va iboralar mavjud bo‘lmasligi kerak. “Ish” toifasida E’lon chet tilida qo‘shimcha ravishda tuzilishi mumkin;
- b. Foydalanuvchi E’lon berilishi kerak bo‘lgan mavzuga mos keladigan bitta Kategoriyani va kichik kategoriyani tanlaydi;
- c. Foydalanuvchi umumiy qiymatni mahalliy valyutada ko‘rsatishi kerak (agar imkon bo‘lsa, QQS bilan) va iloji bo‘lsa narxni kelishish ehtimolini ko‘rsatishi kerak. Mahsulotni bepul yoki boshqa mahsulot yoki xizmat evaziga taklif qilish mumkin. Ushbu qoida “Ish”, “Xizmatlar” toifalaridagi E’lonlarga taalluqli emas, ular uchun E’londa xizmat haqi ko‘rsatilishi majburiy shart emas;
- d. Foydalanuvchi Pozitsiya holatini ko‘rsatadi (yangi yoki ishlatilgan) (“Xizmatlar”, “Ish”, “Hayvonlar”, “Ko‘chmas mulk”, “Oziq-ovqat / Ichimliklar”, “Transport”, , “Boshqalar” (“Xobbi, dam olish sport” Kategoriyasidagi), “Bog‘-tomorqa”, ”Chiptalar“, “Antikvar kolleksiyalar” Kategoriya/Bo‘limlardagi e’lonlardan tashqari);
- e. E’lon Pozitsiyaning tushunarli, aniq va to‘liq tavsifini, shu jumladan, Pozitsiyaning xususiyatlari to‘g‘risida to‘g‘ri va mubolag‘aga yo‘l bermaydigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak;
- f. E’lon aloqa ma’lumotlarini o‘z ichiga olmaydi - bunday ma’lumotlar faqat ushbu maqsad uchun mo‘ljallangan shakl maydonlarida ko‘rsatilishi mumkin;
- g. E’lon predmeti sifatida faqat Foydalanuvchiga tegishli bo‘lgan yoki uni tasarruf etish yoki reklama qilish (sotish uchun taklif qilish) huquqiga ega bo‘lgan narsa bo‘lishi mumkin. Agar E’lon predmeti O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan bo‘lsa, Foydalanuvchi buni E’londa aniq ko‘rsatishi shart.
- h. bir E’lon faqat bir Pozitsiyani taklif qilishi mumkin;
- i. E’londa bir birlik, bir nechta birlik yoki to‘plam/qadoq taklif qilinayotganligini ko‘rsatish lozim (to‘plam - bu bir butunlikni tashkil etuvchi elementlar to‘plamini bildiradi). Bir E’londa Pozitsiyaning mavjudligi yoki o‘xshash variantlar to‘g‘risida ma’lumotni turli xil ranglarda qo‘shishz mumkin (“Biznes va xizmatlar” va “Ish” kategoriyalaridan tashqari);

- j. E’lon tarkibi, xususan, foydalanuvchilarni OLX Group bilan bir xil yoki o‘xshash xizmatlarni (ya’ni takliflarni yoki Internet foydalanuvchilari tomonidan e’lonlarni nashr etish bo‘yicha xizmatlar) taqdim etuvchi kompaniyalarning manbalariga olib boruvchi reklama takliflari va boshqa har qanday reklama ma’lumotlari, veb-sayt manzillari va boshqa elementlarni o‘z ichiga olmasligi kerak.

5. Agar foydalanuvchi E’lonni noto‘g‘ri Kategoriyada nashr qilsa, OLX Group uni boshqa Kategoriyaga ko‘chirishga haqli. Ammo agar bu o‘zgartirish E’lonni Limitdan tashqarida nashr etishga olib keladigan bo‘lsa, unda bunday E’lonni Limitdan tashqarida nashr etilganligi uchun, faqat haqqi to‘langan taqdirda joylashtirish mumkin.

6. Quyidagilar E’lonning pozitsiyasi bo‘lishi mumkin emas:

- a. Pozitsiyalarni qidirish (“Xizmatlar”, “Ish”, “Topilmalar idorasi”, “To‘qish”, Kategoriya/Bo’limlardagi e’lonlardan tashqari);
- b. romantik, turmush qursh, jinsiy xarakterdagi taklif;
- c. 5-ilovada “Taqiqlangan va shartli ravishda ruxsat berilgan pozitsiyalar” keltirilgan taqiqlangan tovarlar, shuningdek **amaldagi qonunchilik** bilan sotilishi taqiqlangan har qanday boshqa tovarlar, o‘g‘irlangan yoki sud yoki ma’muriy nizoning predmetiga aylangan tovarlar, ijro ishlari olib borilayotgan, bankrotlik yoki qayta tashkil etish jarayonidagi yuridik shaxsning mol-mulki bo‘lgan tovarlar.

7. Foydalanuvchi E’lonlarni Veb-saytda quyidagicha nashr qiladi:

- a. “E’lonni qo‘shish” belgisini yoki shunga o‘xshash belgini bosish orqali;
- b. to‘lovni amalga oshirib (faqat Pullik e’lonlar uchun).

8. E’lonni Servisda joylashuvi, uni nashr qilinishidan so‘ng darhol amalga oshadi (pullik e’lonlari bundan mustasno, ularning nashr etilishi to‘lov amalga oshirilgan paytdan boshlab sodir bo‘ladi) va yana 30 kun davom etadi, ammo quyidagi holatlardan biri sodir bo‘lishidan ortiq vaqt emas:

- a. Foydalanuvchi Pozitsiyani sotsa.
- b. Foydalanuvchi E’lonni dastlab tasvirlangan Pozitsiya bilan emas, balki boshqa Pozitsiyani o‘z ichiga olgan tarzda o‘zgartirsa;
- c. Foydalanuvchi E’lonni o‘chirib yuborsa.

9. Agar OLX Group 4.8.a yoki 4.8.b bandlarida ko‘rsatilgan holatlar sodir bo‘lganligi to‘g‘risida xabar topsa, OLX Group, Qoidalarning 10-qismida ko‘rsatilgan prinsiplarga muvofiq E’lonni olib tashlashga haqlidir.

10. E’lonni Veb-saytga joylashtirish davrida Foydalanuvchi uning mazmunini va ba’zi parametrlarini o‘zgartirishi, shuningdek ushbu E’lonni o‘chirib tashlashi mumkin. E’lon joylashtirilishi tugashidan 3 kun oldin, Foydalanuvchi E’lonining namoyish vaqtini yana 30 kunga bepul uzaytirishi mumkin, ammo bu muddat pullik Kategoriyalarda va 3-ilovada “E’lonlar limitlari”da ko‘rsatilgan tegishli Kategoriyadagi Limitdan oshib ketish hollarida to‘lov asosida bo‘ladi.

11. E’lon mazmunini o‘zgartirish imkoniyati, Servis doirasida taqdim etilgan xizmatlar uchun OLX Group tomonidan olinadigan summani to‘lashdan bo‘yin tovlashga qaratilgan, nashr etilgan E’lonning narxining o‘zgarishlariga yoki boshqa parametrlarga yoki Qoidalarda nazarda tutilgan hollarda Foydalanuvchiga tegishli mablag‘larni qaytarib olishga qaratilgan tatbiq etilmaydi. “Ish” kategoriyasidagi E’lonning Joylashuv maydoni E’lon joylashtirilgandan keyin o‘zgartirilishi mumkin emas.

5. Bepul e’lonlar

1. Foydalanuvchi e’lonlarni Veb-saytda Limit doirasida bepul joylashtiradi. Ayrim Kategoriyalar uchun limitlar, Biznes-foydalanuvchilar uchun limitlar va Limit amal qilmaydigan holatlar 3-ilova “E’lonlar limitlari”da ko‘rsatilgan.

2. Limit doirasida (bepul E’lonlar) foydalanuvchi bir vaqtning o‘zida 776 ta faol e’lonlarni nashr etishi mumkin.

3. OLX Group Foydalanuvchini Hisob qaydnomasiga xabar yuborish orqali limit tugaganligi to‘g‘risida xabardor qiladi. Veb-saytga yoki Limit berilmagan kategoriyada Foydalanuvchi tomonidan boshqa e’lonni joylashtirilishi pullik.

6. Pullik e’lonlar

1. Foydalanuvchi tomonidan Veb-saytga pullik E’lonni joylashtirilishi, foydalanuvchi quyidagilarni qo‘lga kiritganidan keyin amalga oshadi:

- a. belgilangan qiymat bo‘yicha bitta E’lonni;
- b. bitta E’lonni pullik xizmatlar to‘plami bilan birgalikda - 6-ilova “Start va Premium to'plamlari”ga muvofiq bitta Premium E’lon;
- c. 6-ilova “Start va Premium paketlari”ga muvofiq Veb-sayt taklif etayotgan Reklama to‘plami. E'tibor bering! Agarda limitdan foydalanishdan oldin e'lon paketini sotib olgan taqdirda, pulli paket birinchi navbatda ishlatiladi.

2. E’lonlar to‘plamini yoki bitta E’lonni veb-saytda mavjud bo‘lgan tegishli shakl orqali sotib olish mumkin.

3. Foydalanuvchining E’lonlar paketini sotib olishi, ushbu foydalanuvchiga “Biznes foydalanuvchi” maqomini berishga olib keladi.

OLX Group, Foydalanuvchining veb-saytidagi faoliyatini tahlil qilish asosida, Foydalanuvchi e’lon nashr qilganda o‘zini qaysi kategoriyaga mansub deb bilishidan qat’i nazar, Foydalanuvchini “Biznes foydalanuvchisi” kategoriyasida tasniflash huquqiga ega. Foydalanuvchini “Biznes” toifasiga kiritish uchun, foydalanuvchining harakatlarida quyidagi belgilarning biri bo‘lishi kifoya:

- a.e’lon joylashtirishda professional fotosuratlardan (stokli fotosuratlaridan) foydalanish;
- b. e’lon matnida veb-sayt / veb-sayt sahifasiga havolaning mavjudligi;

- c. e’lon matnida boshqa modelni tanlash imkoniyati, tovarning assortimenti, tovarning har xil o‘lchamlari mavjudligi, tovarga buyurtma berish imkoniyati, Foydalanuvchi tomonidan tovarga kafolat berilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning mavjudligi.

OLX Group Foydalanuvchini Qoidalarning mazkur bandida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirgani uchun tegishli kategoriyalar/kichik kategoriyalarda “Biznes foydalanuvchi” toifasiga kiritadi, boshqa barcha kategoriyalar/kichik kategoriyalar uchun Foydalanuvchi “Biznes foydalanuvchi” holatiga ega bo‘lmaydi.

4. Servisda pullik E’lonlarni faollashtirish, to‘lovni OLX Group hisob raqamiga tushish paytidan amalga oshadi.

5. E’lonlar to‘plamiga 6-ilova “Start va Premium to‘plamlar”da ko‘rsatilgan Pullik xizmatlar ham kiradi.

7. E’lonlarni rivojlantirish xizmatlari

1. E’lonning jozibadorligini oshirish uchun Foydalanuvchi, e’lonni ko‘tarsh, Top-e’lon va VIP-e’lon shaklidagi pullik rivojlantirish xizmatlaridan foydalanishi mumkin, bu 2-ilova “Rivojlantirish xizmatlari” da batafsil tavsiflangan.

2. E’lonni joylashtirish yoki namoyish qilish paytida Foydalanuvchi har qanday rivojlantirish xizmatlari Xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

3. E’lonlarni rivojlantirish bo‘yicha xizmatlar va to‘plamlar bitta E’lon uchun amal qiladi, ya’ni turli xil e’lonlar uchun bunday xizmatlar to‘plamidan foydalanish mumkin emas.

4. Rivojlantirish xizmatlari paketini faollashtirish, paketga kiritilgan rivojlantirish xizmatlaridan foydalanishni boshlaganingizda sodir bo‘ladi. Qoidalar, paketga kiritilgan rivojlantirish xizmatlari uchun ham ta’luqli.

5. OLX Group e’lon yoki uning pozitsiyasiga qiziqishning haqiqiy o'sishi sifatida tushuniladigan Rivojlantirish xizmatlarining samaradorligi uchun javobgar emas.

8. To‘lov

1. Veb-saytda Foydalanuvchiga tanlangan Pullik xizmatlarning joriy narxi to‘g‘risida vizual axborot beriladi. Veb-saytda ko‘rsatilgan barcha narxlar mahalliy valyutada (UZS) ko‘rsatilgan brutto narxlardir (qo‘shimcha qiymat solig‘i bilan).

2. Servis doirasida amalga oshiriladigan to‘lovlar oldindan to‘lov ko‘rinishida- ushbu Pullik xizmatga buyurtma berish uchun zarur bo‘lgan to‘liq hajmda, taqdim etilishishidan oldin - OLX Group tomonidan taqdim etilgan to‘lov shakllaridan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak.

3. Pullik xizmatni taqdim etish, ushbu Pullik xizmat uchun to‘liq to‘lov OLX Group hisob raqamiga tushgandan so‘ng boshlanadi.

4. Foydalanuvchi o‘z ixtiyoriga ko‘ra OLX hisob raqamidagi to‘lov ko‘rsatmalariga rioya qilgan holda, ushbu xizmatni tanlash jarayonida taqdim etilgan ma’lumotlarga muvofiq, mavjud to‘lov usullaridan biri yordamida to‘lovni amalga oshirishi mumkin.

5. Har qanday to‘lov usullaridan foydalanish (OLX hisob raqamidan to‘lovlar bundan mustasno) ushbu to‘lov xizmati ko‘rsatuvchisi bilan alohida huquqiy munosabatlarni o‘rnatishni va uning qoidalarini qabul qilishni talab qiladi. OLX Group bunday munosabatlarning ishtirokchisi bo‘lmay, ularning mazmuni yoki amalga oshirilishiga aralashish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. To‘lov bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelganda, foydalanuvchi shubhalarni aniqlash yoki shikoyat yuborish uchun tegishli operatorga murojaat qilishi kerak. Biroq, istisno holatlarda, texnik va tashkiliy imkoniyatlar doirasida OLX Group foydalanuvchiga muammoni aniqlashda yordam berishi mumkin. OLX Group tashqi xizmat yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etiladigan to‘lov xizmatlari uchun javobgar emas.

6. Topshirish-qabul qilish dalolatnomalari jismoniy tadbirkor-shaxslar yoki yuridik shaxslar bo‘lgan Biznes-foydalanuvchilarga, faqat to‘lov provayderlari xizmatlaridan foydalanmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri OLX Groupga hisob-faktura asosida to‘lov amalga oshirilgan taqdirda taqdim etilishi mumkin.

7. Foydalanuvchi tomonidan olib tashlanganligi sababli E’lon namoyish etilishi muddatidan oldin to‘xtatilgan bo‘lsa, agar Pozitsiya sotilgan bo‘lsa yoki Foydalanuvchi e’lon mavzusini, dastlab ko‘rsatilmagan boshqa Pozitsiya ko‘rsatiladigan tarzda o‘zgartirgan bo‘lsa, ushbu E’lon joylashtirilishi va tegishli Pullik xizmatlarni uchun foydalanilmagan muddat uchun olinadigan to‘lov, qaytarib berilmaydi.

8. Qonunni yoki ushbu Qoidalarni buzadigan, xususan noto‘g‘ri kategoriyaga qo‘shilgan, bir-biriga o‘xshash yoki takrorlanadigan, ko‘p marta takrorlanadigan (spam), tajovuzkor yoki pornografik xarakterdagi materiallar, firibgarlikka urinishlar, mualliflik huquqini buzadigan e’lonlar o‘chiriladi va E’lon joylashtirilishi uchun ilgari olinadigan va ushbu E’lon bilan bog‘liq Pullik xizmatlar uchun to‘lovlar Foydalanuvchining hisob qaydnomasidagi - “Qaytarishlar” hisob raqamiga qaytariladi. Foydalanuvchining iltimosiga binoan to‘lov summasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lov amalga oshirilgan bank hisob raqamiga qaytarilishi mumkin. Agar E’lon Veb-saytga joylashtirilganidan keyin olib tashlansa, Foydalanuvchidan E’lon Veb-saytdan olib tashlangunga qadar ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq olinadi.

9. Bank hisob raqamiga mablag‘larni qaytarish, Foydalanuvchi o‘zining OLX hisob raqamini to‘ldirgan to‘lov sherigi orqali amalga oshiriladi. Mablag‘ qaytarilishi faqat OLX hisob raqamiga mablag kiritilgan oy ichida (01 dan 25 sanagacha) amalga oshirilishi mumkin. Boshqa hollarda qonuniy cheklovlar tufayli mablag‘larni qaytarib bo‘lmaydi.

9. OLX hisob raqami xizmati

1. OLX Group hisob qaydnomasi doirasida Foydalanuvchi OLX hisob raqami xizmatidan bepul foydalanishi mumkin, bu buyurtma qilingan Pullik xizmatlar uchun OLX Group bilan hisob-kitoblarni osonlashtiradi Shubhalarni keltirib chiqarmaslik uchun, OLX hisob raqami

xizmati to‘lov xizmati emasdir va OLX hisob raqamiga o‘tkazilgan birliklar to‘lov xizmatlarini ko‘rsatish qoidalari kontekstida elektron pullar emasdir.

2. OLX hisob raqamidan foydalanish quyidagi qoidalarga bo‘ysunadi:

- a. Foydalanuvchi Servisda keltirilgan ma’lumotlarga muvofiq qabul qilinadigan valyutalardan birida OLX Group hisob raqamiga mablag kiritish orqali OLX hisob raqamiga depozit qo‘yishi kerak;
- b. To‘lov OLX Group hisob raqamiga o‘tkazilgandan so‘ng, OLX Group ushbu Foydalanuvchining OLX hisob raqamiga to‘langan miqdorga teng miqdordagi birliklarni beradi. Ushbu miqdor Foydalanuvchining har bir operatsiyasidan so‘ng uning miqdorini o‘zgartirishga olib keladigan doimiy ravishda yangilanadi (hisobni to‘ldirish OLX hisob raqamidagi birliklar sonining ko‘payishiga olib keladi), ma’lum Pullik xizmat uchun to‘lov OLX hisob raqamidagi birliklar miqdorining pasayishiga olib keladi);
- c. Foydalanuvchi o‘zining OLX hisob raqamiga biriktirilgan mablag‘larni Hisob qaydnomasiga xizmat ko‘rsatish Shartnomasining amal qilish muddati davomida, Hisob qaydnomasi faol holda bo‘lishi sharti bilan, to‘liq tasarruf etishi mumkin;
- d. Ma’lum bir Pullik xizmat uchun to‘lovlar OLX hisob raqamidan amalga oshirilgan taqdirda, OLX Group Foydalanuvchining OLX hisob raqamidan ma’lum bir Pullik xizmatni taqdim etish uchun tegishli mablag‘ni ushlab qoladi(balansni kamayishi).

3. Foydalanuvchi istalgan vaqtda Foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilgan to‘lovlar va depozitlarni hisobga olgan holda OLX hisob raqamiga qo‘yilgan mablag‘ni OLX hisob raqamining qoldig‘idan oshmaydigan har qanday miqdorda qaytarilishini talab qilishi mumkin. Ushbu so‘rov qayta aloqa shakli orqali yuboriladi.

4. OLX hisob raqamidan mablag‘larni qaytarish, ortiqcha kechiktirishlarsiz, ularni Qoidalarning 8.9-band nizomlariga rioya qilgan holda to‘lov amalga oshirilgan bank hisob raqamiga o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi. OLX hisob raqamidan pulni qaytarib berish to‘g‘risidagi talabnoma, 6-ilova “Start va Premium paketlari” ga muvofiq Premium paketlarda mavjud bo‘lgan reklama aksiyalari, tanlovlar va bonuslar doirasida Hisob qaydnomasiga o‘tkazib berilgan bonuslarga taalluqli emas. Reklama ballari har safar alohida aksiya o‘tkazish qoidalariga muvofiq beriladi va ular hisoblangan kundan boshlab 30 kun davomida amal qiladi. Ularni ushbu qoidalarda ko‘rsatilgan qoidalarga muvofiq ishlatilish mumkin.

Bank hisob raqamiga mablag‘larni qaytarish, Foydalanuvchi o‘zining OLX hisob raqamini to‘ldirgan to‘lov sherigi orqali amalga oshiriladi. Mablag‘ qaytarilishi faqat OLX hisob raqamiga mablag kiritilgan oy ichida (01 dan 25 sanagacha) amalga oshirilishi mumkin. Boshqa hollarda qonuniy cheklovlar tufayli mablag‘larni qaytarib bo‘lmaydi.

10. Foydalanuvchilarning noqonuniy va Qoidalarga zid harakatlari

1. Foydalanuvchi Servisdan maqsadga muvofiq ravishda, qonunlarga va axborot jamiyatining qoidalariga rioya qilib, o‘zga shaxslarning huquqlari va manfaatlarini hurmat qilgan holda foydalanish huquqiga ega. Xususan, foydalanuvchi quyidagilarni o‘z zimmasiga oladi:

- a. Servisning normal faoliyatiga xalaqit beradigan harakatlarni, shu jumladan Servis, o‘zining Hisob qaydnomasi yoki boshqa foydalanuvchilar Hisob qaydnomalari tarkibiga yoki Servis ning axborot-texnik elementlariga aralashmaslikni;
- b. noqonuniy xatti-harakatlar qilmaslik, shu jumladan Servisning funksional imkoniyatlaridan, qonunlarni va shaxsiy huquqlarni buzadigan materiallarni, terroristik xususiyatli, bolalar pornografiyasini o‘z ichiga olgan yoki tarqatadigan, boshqa shaxslarning intellektual mulk huquqlarini buzadigan, shuningdek kamsituvchi yoki irqchilik tabiatli kontentni yuborish yoki nashr etish uchun foydalanmaslik;
- c. 5-ilova “Taqiqlangan va shartli ravishda ruxsat berilgan pozitsiyalar”da keltirilgan Pozitsiyalarni sotish (yoki shunga o‘xshash ta’sirga ega bo‘lgan boshqa harakatlarni amalga oshirishda) uchun Veb-saytning funksional imkoniyatlaridan foydalanmaslik, shuningdek amaldagi qonunchilikka muvofiq sotish istisno qilingan holda boshqa Pozitsiyalarni, shuningdek o‘g‘irlangan yoki yuridik yoki ma’muriy nizoga sabab bo‘lgan Pozitsiyalar yoki ijro ishlari olib boriladigan, bankrotlik yoki qayta tashkil etiladigan Pozitsiyalarni 5-ilovada keltirilgan shartlarni bajarmasdan sotmaslik;
- d. Servis va OLX Group foydalanuvchilarini chalg‘itmaslik, masalan, Pozitsiya to‘g‘risida yolg‘on ma’lumot berish yoki tegishli ma’lumotlarni yashirish;
- e. firibgarlik harakatlardan, Servisning funksionalligini suiste’mol qilishdan, Servisdan maqsadlari va Qoidalarga zid ravishda foydalanishdan saqlanish.

2. Foydalanuvchi Qoidalarning 10.1-bandida sanab o‘tilgan majburiyatlarni Servisdan foydalanishning har bir bosqichida, har bir taklif qilingan funksionallikga nisbatan, shu jumladan E’lonlarni nashr qilish va boshqa Foydalanuvchilarga xabarlar yuborish holatlarida bajarishi shart.

3. Veb-saytda biron bir kontentni nashr etish yoki uzatish Veb-sayt interfeysi yordamida va OLX Group ishtirokisiz avtomatik ravishda amalga oshiriladi. OLX Group Veb-sayt funksiyalari yordamida uzatilgan barcha kontentni avtomatik ravishda tekshirmaydi.

4. Foydalanuvchi Veb-saytga joylashtirilgan E’lonining mazmunini o‘zgartirgan taqdirda, OLX Group Qoidalarga mos kelmaydigan kontentni tahrirlash yoki e’lonni olib tashlash huquqiga ega.

5. Servisdan foydalanuvchi har qanday shaxs OLX Groupga Servis funksiyalari yordamida tarqatilayotgan har qanday noqonuniy yoki Qoidalar va nizomlarga zid bo‘lgan kontent to‘g‘risida xabar berish imkoniyatiga ega. Buning uchun (“Shikoyat”) E’loni ostida “Shikoyat” funksiyasi mavjud. Xabar beruvchi imkon darajasida OLX Groupga suiiste’mol qilish to‘g‘risidagi Hisobotni tekshirishga imkon beradigan ma’lumotlarni, shu jumladan, e’lon IDsini, nima uchun kontent noqonuniy yoki Qoidalarga zid deb hisoblashi haqidagi tushuntirishlarini, xohishiga ko‘ra, o‘zining aloqa ma’lumotlarini taqdim etishi kerak.

6. Servis funksiyalari yordamida yuborilgan yoki nashr etilgan kontent noqonuniy ekanligi yoki Qoidalar nizomlarini buzganligi to‘g‘risida ishonchli xabar (suiiste’mol qilish to‘g‘risidagi xabar asosida yoki boshqa biron bir tarzda) olingan taqdirda, OLX Group quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

- a. zudlik bilan ushbu kontentni, shu jumladan, E’lonni, shuningdek tegishli Rivojlantirish xizmatlarini bloklab qo‘yishni. Blokirovka qilingan taqdirda kontent, Foydalanuvchi hisob qaydnomasi panelida Servisdan foydalanadigan shaxslar uchun ko‘rinmaydigan yoki unga kirish emkonisiz bo‘ladi;
- b. mutanosib va oqilona harakat qilgan holda, masalan, axborot beruvchi, kontent-yetkazib beruvchisi, vakolatli organ yoki tashqi maslahatchi bilan bog‘lanish orqali ishning dalillarini aniqlash uchun tegishli tekshiruvlarni o‘tkazishni;
- c. aniq bir kontent bloklangan taqdirda, blokirovka kuchga kirgunga qadar, ushbu kontentni etkazib beruvchisiga elektron pochta orqali bloklangan kontentni, uni blokirovka qilish to‘g‘risidagi qaror sabablarini ko‘rsatgan holda ma’lumot berish bilan Qoidalarga asoslanib qabul qilingan qarorni asoslashni;
- d. vakolatli davlat organining bildirishnomasi tufayli qonunning majburiy qoidalari yoki davlatning, odamlarning hayoti, sog‘lig‘i xavfsizligini ta’minlash zarurligi sababli ushbu bandda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni oshkor qilinmasligi talab etilsa, 10.6.c) bandning qoidalari qo‘llanilmaydi.

7. Foydalanuvchi Servis funksiyalaridan foydalangan holda o‘zi tomonidan uzatilgan yoki nashr etilgan kontentni blokirovka qilish to‘g‘risidagi qarorni OLX Group tomonidan blokirovka qilish to‘g‘risida ma’lumot berilishiga qarshi chiqib, e’tiroz bildirish huquqiga ega. Shikoyatni ko‘rib chiqilishi jarayonini tartibga soluvchi Nizomlar tegishli ravishda qo‘llaniladi.

8. Agar 10.7-bandda ko‘rsatilgan e’tiroz asosli deb topilsa yoki ushbu kontent Qoidalarining noqonuniyligi yoki qarama-qarshiligini oqlaydigan holatlarga nisbatan shubhalar yo‘q bo‘lsa:

- a. bloklangan kontent qayta tiklanadi, shundan so‘ng u Hisob qaydnomasida, E’lon nusxasi shaklida mavjud bo‘ladi. Foydalanuvchi uni Servis orqali nashr qilishi mumkin;
- b. agar E’longa Pullik xizmatlardan biri ta’luqli bo‘lsa, E’lonni joylashtirish va ushbu E’lon bilan bog‘liq Pullik xizmatlar uchun ilgari to‘langan to‘lov foydalanuvchining hisob qaydnomasiga - “Qaytarishlar” hisob raqamiga qaytariladi. Pul mablag‘larini qaytarish xizmat ko‘rsatilmagan soatlar uchun amalga oshiriladi. Qaytarilishi kerak bo‘lgan mablaglar miqdorini hisoblash uchun astronomik soat qabul qilinadi, pulni qaytarish xizmat fakt bo‘yicha ko‘rsatilmagan soatlar uchun amalga oshiriladi. Foydalanuvchining talabiga binoan, to‘lov summasi Qoidalarning 8.9-bandiga rioya qilgan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lov amalga oshirilgan bank hisob raqamiga qaytarilishi mumkin.

9. Agar 10.7-bandda ko‘rsatilgan e’tiroz asossiz deb hisoblansa yoki Biznes-foydalanuvchisi 10.6.c-bandda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni olgandan keyin 7 kun ichida e’tiroz bildirmasa:

- a. Bloklangan kontent Veb-saytdan butunlay olib tashlanadi;
- b. Agar E’longa Pullik xizmatlardan biri ta’luqli bo‘lsa, E’lonni joylashtirish va ushbu E’lon bilan bog‘liq Pullik xizmatlar uchun ilgari to‘langan to‘lov foydalanuvchining hisob qaydnomasiga - “Qaytarishlar” hisob raqamiga qaytariladi. Pul mablag‘larini qaytarish xizmat ko‘rsatilmagan soatlar uchun amalga oshiriladi. Qaytarilishi kerak bo‘lgan mablaglar miqdorini hisoblash uchun astronomik soat qabul qilinadi, pulni qaytarish xizmat fakt bo‘yicha ko‘rsatilmagan soatlar uchun amalga oshiriladi. Foydalanuvchining

talabiga binoan, to‘lov summasi Qoidalarning 8.9-bandiga rioya qilgan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lov amalga oshirilgan bank hisob raqamiga qaytarilishi mumkin.

10. Agar Servis doirasidagi boshqa foydalanuvchilar xavfsizligiga tahdid soluvchi harakatlar E’lon yoki Hisob qaydnomasi orqali sodir bo‘lishi mumkinligiga shubha bo‘lsa, shuningdek, E’lonni OLX Group obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatsa yoki boshqacha zarar yetkazsai, OLX Group E’lonni olib tashlash yoki Hisob qaydnomasini blokirovka qilishga haqlidir.

11. Servisdan foydalanish jarayonida jiddiy qonun buzilishi, shuningdek, Qoidalarning jiddiy yoki takroriy buzilishi holatlarida, xususan, ma’lum bir Foydalanuvchi yoki birgalikda kelishuv asosida harakat qilgan Foydalanuvchilar tomonidan, turli Hisob qaydnomalaridan foydalanishni ham o‘z ichiga olgan noqonuniy kontentni nashr etishga yoki tarqatishga takroran urinishlar sodir bo‘lganda, OLX Group mutanosiblik va tarqatish erkinligini hurmat qilish prinsiplariga muvofiq, Hisob qaydnomasi yoki Hisob qaydnomalarini vaqtincha to‘xtatib qo‘yishi, vaqtincha yoki doimiy bloklab qo‘yishi mumkin, bu quyidagi Qoidalarga amal qilgan holda, foydalanuvchiga xizmatlar ko‘rsatishning vaqtincha to‘xtatib qo‘yilishiga barobar bo‘ladi:

- a. Hisob qaydnomasi amal qilishini to‘xtatib turish uning ishlashini vaqtincha to‘xtatib turishni anglatadi. Hisob qaydnomasi to‘xtatib qo‘yilgan Foydalanuvchi Servisdan faol foydalanish imkoniyatini yo‘qotadi, ya’ni uning funksiyalari yordamida xabarlar yuborish, E’lon nashr qilish yoki Bitimlarni amalga oshirish imkonin yo‘qotadi. Biroq, siz Servisni, xabarlar tarixini va nashr qilingan E’lonlarni ko‘rishingiz va OLX hisob raqamingizga mablag‘ kiritishingiz mumkin, ammo tayinlangan mablag‘larni chiqarib olish uchun siz qayta aloqa shaklidan foydalanib, mijozlarni qo‘llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilishingiz kerak.
- b. Hisob qaydnomasining bloklanishi, Foydalanuvchi unga kirish imkoniyatidan ayrilishini anglatadi.

12. Muayyan kontentni blokirovka qilish holatlarida, blokirovka kuchga kirgunga qadar, bu haqda Foydalanuvchiga elektron pochta orqali (elektron pochta orqali Servisda ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar uchun) bloklangan kontent, bloklash sabablari ko‘rsatilgan holda, Qoidalardan kelib chiqadigan asoslar bilan xabar yetkaziladi. Telefon raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan Foydalanuvchiga push-xabarnomasi orqali xabar beriladi, yuqoridagi barcha ma’lumotlar bunday foydalanuvchi uchun Hisob qaydnomasida mavjud bo‘ladi.

13. Shubhalanmaslik uchun, Qoidalarning 10.6 yoki 10.11 bandlarida keltirilgan vaziyatlarda samarali e’tiroz bildirish yoki bildirmaslik, Foydalanuvchining Qoidalarning 12-bandiga muvofiq shikoyat berish huquqiga ta’sir qilmaydi.

11. Reytinglar va sharhlar

1. Servis doirasida Reyting va sharhlar tizimi ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu Foydalanuvchiga biznes sotuvchilariga, o‘zlarining bunday sotuvchiga bo‘lgan tranzaksion tajribalari yuzasida subyektiv baho berishlariga imkon beradi. Tranzaksiya tajriba, xususan, quyidagicha tushuniladi: Foydalanuvchilarga Tovarning aniq va ishonchli tavsifini taqdim etish, Foydalanuvchilar

o‘rtasidagi aloqa shakli va uslubi, javobgarlik, tushunchaga egalik darajasi, sotib olingan Tovarni yuborish va yetkazib berish vaqti, punktuallik. Baholashning yakuniy asosi Foydalanuvchilarning har qanday o‘zaro ta’siri bo‘lishi mumkin, faqatgina tranzaksiya (bitim) tuzish emas.

2. Reyting Saytda ko‘rsatilgan tartibda, shaklda, muddatlarda va kategoriyalarda beriladi. Reyting Saytda Foydalanuvchilar tomonidan taqdim etilgan barcha reytinglarning o‘rtacha darajasi asosida 1 dan 10 gacha (o‘nlik kasrgacha) masshtabda Foydalanuvchining E’lonlarida taqdim etiladi.

3. Tavsifiy sharh faqatgina ushbu sharh qoldirilgan Foydalanuvchi uchun, foydalanuvchi akkauntida ko‘rinadi. Bundan tashqari, bunday sharh Kompaniya uchun Foydalanuvchilarning harakatlarini tekshirishda yordamchi rol o‘ynaydi.

4. Agar Foydalanuvchiga bitta Foydalanuvchi tomonidan bir nechta reyting berilgan bo‘lsa, faqatgina oxirgi qoldirilgan reyting Foydalanuvchining o‘rtacha reytingiga kiritiladi.

Sharh amaldagi qonunchilik qoidalarini buzishi mumkin emas va quyidagilarni o‘z ichiga olmaydi:

- haqoratliso‘zlarni,behayo va pornografik kontentni yoki nafrat, irqchilik;
- ksenofobiya va etnik mojarolarni keltirib chiqaradigan kontentni;
- veb-saytlar manzillarini yoki boshqa veb-saytlarga havolalarni;
- reklama kontentini, boshqa tijorat kontentini;
- Foydalanuvchilar yoki boshqa jismoniy shaxslarning ma’lumotlarini, shu jumladan, lekin faqat emas: ism va familiyasini, yashash joyini, telefon raqamini, manzilini, bankdagi hisob raqamini;
- uchinchi shaxslarning huquqlariga, shu jumladan boshqa foydalanuvchilar yoki uchinchi shaxslarning intellektual mulk huquqlariga, shaxsiy huquqlariga, shu jumladan nomi va obro‘siga zarar yetkazadigan kontentni;
- reyting yoki sharhlarga ta’sir o‘tkazish maqsadida boshqa foydalanuvchilar yoki uchinchi shaxslar bilan tuzilgan kelishuv natijasi bo‘lgan kontent;
- yolg‘on, tuhmat qiluvchi, adolatsiz raqobatni o‘z ichiga olgan kontent.

5. OLX Group Foydalanuvchining o‘rtacha reytingiga taqdim etilgan reytingni kiritmaslikka yoki reyting yoki sharhni quyidagi hollarda i to‘liq yoki qisman olib tashlashga haqlidir:

- baholanayotganFoydalanuvchibo‘lmagan Foydalanuvchiga tegishli bo‘lsa;
- Foydalanuvchi tomonidan o‘zi uchun taqdim etilsa;
- Foydalanuvchining xodimlari, qarindoshlari, qondoshlari va hokazolar tomonidan taqdim etilsa.
- Foydalanuvchi bilan aloqa qilish natijasida faqatgina reyting va / yoki baho berish maqsadida taqdim etilsa (masalan, Foydalanuvchiga ishonch darajasini sun’iy ravishda oshirish yoki pasaytirish);
- faqat hisob qaydnomasini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun yaratilgan elektron pochta manzilidagi akkauntdan taqdim etilsa;

- joylashtirishni avtomatlashtirish yoki tarmoq trafigini tahlil qilishdan qochadigan yechimlardan foydalangan holda joylashishni ko‘rsatadigan tarzda taqdim etilgan bo‘lsa;
- boshqa uslubda Qoidalar shartlarini buzsa.

6. Sharhning mazmuniga kelsak, Foydalanuvchi OLX Groupga Qoidalar va Qoidalarning boshqa tegishli nizomlarining 4.3-bandida ko‘rsatilgan shartlar asosida eksklyuziv bo‘lmagan, geografik jihatdan cheklanmagan va bepul litsenziyani taqdim etadi.

12. Shikoyat qilish tartibi

1. Agar Servis ishlashida, shu jumladan alohida texnik xizmatlarda biron bir nosozlik yuzaga kelsa, siz yoki Mehmon birinchi navbatda muammoni aniqlash uchun kerakli ma’lumotlarni taqdim etib, qayta aloqa shakli orqali Mijozlarni qo‘llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilishingiz kerak.

2. OLX Group yuqori sifatli xizmatlarni ko‘rsatish uchun barcha sa’y-harakatlarni amalga oshiradi. Yuqorida aytib o‘tilganlardan qat’i nazar, OLX Group tomonidan Qoidalarda ko‘zda tutilgan xizmatlari ko‘rsatilmagan yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilgan taqdirda Foydalanuvchi shikoyatni bepul yuborish huquqiga ega.

3. Shikoyatni elektron xabarnoma sifatida qayta aloqa shakli orqali yuborish yoki OLX Group manziliga xat yuborish orqali amalga oshirish mumkin.

4. Shikoyat o‘z ichiga kamida kuyidaglarni olishi kerak: Foydalanuvchining ismi va familiyasini, Hisob qaydnomasiga biriktirilgan elektron pochta manzilini yoki Hisob qaydnomasiga biriktirilgan telefon raqamini (telefon raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar uchun), E’lonning identifikatsiya raqamini, shikoyatni tasdiqlovchi holatlarni va Foydalanuvchi shikoyat bilan bog‘liq so‘rovini.

5. Shikoyatda keltirilgan ma’lumotlar yoki axborot uni tushunishga imkon bermasa, OLX Group shikoyatni qabul qilishi kerak bo‘lsa, OLX Group Foydalanuvchidan shubhalari yoki talablarini ko‘rsatib, noaniq fikrlarni aniqlashtirishini yoki qo‘shimcha ma’lumotlarni taqdim etishini so‘raydi.

6. OLX Group shikoyatni qabul qilingan yoki Qoidalarning 12.5-bandida ko‘rsatilgan qo‘shimcha ma’lumotlarni olgan kundan boshlab 15 kun ichida tan oladi. OLX Groupning shikoyatga javobi, agar Foydalanuvchi shikoyatda ko‘rsatilgan pochta manziliga javob yuborishni so‘ramasa, Hisob qaydnomasiga biriktirilgan elektron pochta manziliga yuborilishi kerak.

13. Nizolarni sudgacha hal qilish

1. Mijoz O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq iste’mol nizosini sudgacha hal etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi Qo‘mitasi huzuridagi Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish agentligiga shikoyat yuborish orqali murojaat qilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi qo‘mitasi huzuridagi Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish agentligining rasmiy veb-sayti - https://consumer.uz/

14. Yakunlovchi qoidalar

1. OLX Group quyidagi tamoyillarga rioya qilgan holda ushbu Qoidalarga o‘zgartirish kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi:

- a. Qoidalarga kiritilgan o‘zgartirishlar tashkiliy, huquqiy yoki texnik masalalar, shuningdek Pullik xizmatlarni ko‘rsatish shartlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin;
- b. Foydalanuvchiga har bir o‘zgartirish to‘g‘risida Servis sahifasida ma’lumotlarni joylashtirish orqali ma’lumot beriladi. Ular Hisob qaydnomasiga to‘g‘ri kirilganda ko‘rinadi.
- c. O‘zgartirishlar OLX Group tomonidan belgilangan muddat ichida kuchga kiradi - agar amaldagi qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, Qoidalardagi o‘zgarishlar to‘g‘risida xabar berilgan kundan boshlab kamida 15 kundan keyin;
- d. O‘zgarishlar Foydalanuvchini sotib olingan Pullik xizmatlar bilan bog‘liq huquqlarini cheklashi yoki ulardan mahrum etishi mumkin emas. Qoidalarga o‘zgartirishlar kuchga kirgunga qadar sotib olingan Pullik xizmatlar amaldagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

2. Qoidalarning amaldagi tahrirdagi nizomlari yangi Qoidalar kuchga kirgan kundan oldin amalda bo‘lgan pullik xizmatlarga nisbatan qo‘llaniladi.

3. Qoidalarga tuzatishlarni qabul qilmaydigan Foydalanuvchi istagan vaqtida Hisob qaydnomasiga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomani bekor qilishga haqlidir.

4. Agar qonunchilikning majburiy qoidalarida va Foydalanuvchi va OLX Group o‘rtasida tuzilgan shartnomalarga nisbatan qo‘llaniladigan qoidalarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi qonunining amal qilishi ustunlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi qonuni foydasiga tanlov, Mijozni shartlarga binoan va tanlov imkoniyati bo‘lmagan taqdirda qo‘llaniladigan qonun asosida buzilishi mumkin bo‘lmagan qoidalarga muvofiq unga taqdim etilgan himoyadan mahrum qilmaydi.

5. Servis doirasidagi OLX Group xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq barcha nizolar umumiy yurisdiksiyali, vakolatli sudlarga yuborilishi kerak.

6. Ushbu Qoidalarga qo‘shimchalar ularning ajralmas qismi sanaladi.